

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari	6
Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi	11
Karimova Nilufar , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan	16
Peng Xinge , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
Xotamov Ibodulla Sadullayevich , i.f.n., professor, Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
Azlarova Munira Muhammad Amin qizi , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective	40
Kuzikulova Dilfuza	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
Eshbayev Oybek , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
Rozikov Ravshan , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
Kurbanova Nigina , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road	85
Kalonov Mukhiddin Bahridinovich , professor	
Shao Junling , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
Zhao shenghan	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
Abduraximova Dilora Karimovna , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
Xasanxonova Nodira Isametdinovna , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat	112
Kaxorova Anora Nusratovna , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari	118
Qahramon Usmanovich Umidullayev , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish	129
Tulayev Mirzakul Salamovich , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari	133
Sh. B. Babayev , dotsent; M. R. Qulmetov , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari	138
G'aniyev Shahriiddin Vohidovich , professor, i. f. d. (DsC), Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики	144
Жиянова Наргиза Эсанбоена , к.э.н., проф., Азимжонова Малика Шавкат қизи , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi	150
Yaxyayeva Inobat Karimovna , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов	160
Хакимов Назар Хакимович , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership	166
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
Xasanova Zarina , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
M. O. Hamroqulov , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region)	188
Saidov Nurali Rakhimovich	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region.	193
S. M. Rakhimova	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	197
Джурабаев Отабек Джурбаевич , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni	207
Baratova Dinora Alisherovna , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari	213
Qulmatova S. , PhD, katta o'qituvchi; Karimov Botir , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati	218
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
Odilova Sitora Sayfitdin qizi , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari	228
Saydullayeva Fotima Jozilovna , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
Xasanov Xayrulla Nasrullahovich	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba	241
Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе	247
Оспан Айзада Бейсенқызы , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
Mirzoyev Feruz Mamurjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari	259
Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth	267
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
Madraimov Xabibulla Madaminovich , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari	282
Mamatov Mamajan Axmadjonovich , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash	288
Ergashova Nargiza Boboxonovna , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari	296
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lif xizmatlari bozorining ahamiyati	306
Babadjanova Malika Ruzimovna , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli	312
Kamilov Baxramjon Umardjonovich	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
Bekdavlat Aliyev , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari	321
O. T. Nurmatov , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
Abdullayev Suyun Artiqovich , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
Saidaxmedova Aida Mirzayevna , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
D. A. Azlarova , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs	360
Kholikova Rukhsora Sanjarovna , PhD, Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari	364
Zuhra Abdikarimova , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
Sindarov Fazliddin Qahramonovich , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari	376
To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
B. K. Tuxliyev , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
Aminboy Sa'dullayev , i.f.n., dotsent, Dilshod Vaisov , magistr, Farhod Egamberganov , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
Pardayev Jamshid Muzaffarovich , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
Muxtidinova Kamola Alisherovna , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
Gafurov Olimjon , teacher, Kholmuminov Humoyun , teacher, Abrueva Sevinch , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики	411
Ф. Т. Абдувахидов , доцент, А. Ю. Нурмухаммедов , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri	417
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan	420
Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli	



O'ZBEKISTON ICHKI OZIQ-OVQAT TOVARLARI BOZORINI TO'LDIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Azlarova Munira Muhammad Amin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi



Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talabning o'zgarish tendentsiyalari yoritilgan. Respublika hududlari bo'yicha iste'mol tovarlarining ishlab chiqarish holati, O'zbekistonga oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi davlatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, oziq-ovqat mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish har qanday davlat uchun muhim ekanligini hisobga olgan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat tovarlari, talab va taklif, agrobiznes, klaster, bozor, mahsulot sifati, mahsulot narxi, nazorat, oziq-ovqat xavfsizligi, iste'mol tovarlari, agrar, sanoat, moliya-kredit, mintaqaviy, ijtimoiy, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar.

Аннотация: в данной научной статье рассматриваются тенденции изменения спроса на продовольственные товары в Узбекистане. Были разработаны предложения и рекомендации с учетом состояния производства потребительских товаров по регионам республики, информации о странах, импортирующих продовольствие в Узбекистан, важности факта удовлетворения спроса на продовольственные товары для любого государства.

Ключевые слова: продовольственные товары, спрос и предложение, агробизнес, кластер, рынок, качество продукции, цена на продукцию, контроль, продовольственная безопасность, потребительские товары, аграрные, промышленные, финансово-кредитные, региональные, социальные, экологические, социально-экономические условия.

Abstract: this scientific article describes trends in the demand for food products in Uzbekistan. Proposals and recommendations were developed taking into account the state of production of consumer goods in the regions of the republic, information on the countries that import food products to Uzbekistan, meeting the demand for food products is important for any country.

Key words: food products, demand and supply, agrobusiness, cluster, market, product quality, product price, control, food safety, consumer goods, agrarian, industry, finance-credit, regional, social, environmental, social-economic conditions.

KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda raqobatlashadigan bozor munosabatlarini rivojlantirish, bozorni turli tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish, iste'molchilarning sifatli tovar xarid qilishga keng imkoniyatlar yaratishni marketing tamoyillari asosida baholash, marketing strategiyasini ishlab chiqish, pirovardida aholining farovon turmush sharoitini ta'minlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Shu bois iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash sharoitida iste'mol bozorini va aholining iste'mol ko'satsichklarini o'rganish, marketing strategiyasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda aholining iste'mol tovarlariga xususan, oziq-ovqat mahsulotlari bo'lgan ehtiyojlarini barqaror ta'minlash, ichki iste'mol bozorini mahalliy ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, ularning narxlarini yanada arzonlashtirish, aholining sifatli iste'mol tovarlariga bo'lgan talablarini to'laroq qondirishda marketing omillaridan foydalinish, iste'mol tovarlari bozorida marketing strategiyasini shakllantirish va takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish zarur va maqsadga muvofiq bo'lib, tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Ichki bozorni oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirish, Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi muhim o'rinn tutadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasining qo'shma majlisidagi nutqida "Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya'ni harakatga keltiruvchi kuchi bo'lgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi", – deb ta'kidlagan^[1].



Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat sanoati ham muhim rol o'ynaydi. Oziq-ovqat sanoati tayyor yoki yarim fabrikat holda ovqat mahsulotlari, shuningdek, ichimliklar, tamaki buyumlari hamda yog' ishlab chiqarish asosida sovun va yuvish vositalarining bir necha toifalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar guruhidir [4]. Xalqaro tarmoqlar standarti klassifikatsiyasida oziq-ovqat ishlab chiqarish ishlab beruvchi, ya'ni unumli tarmoqlar guruhiga kiritilgan. Oziq-ovqat sanoatining mustaqil bo'linmalari sifatida oziq-ovqat ishlab chiqarish (kod 10), ichimliklar ishlab chiqarish (kod 11) va tamaki buyumlari ishlab chiqarish (kod12). Oziq-ovqat ishlab chiqarish 13 ta tarmoqqa bo'linadi: go'sht sanoati (1010); baliq sanoati (1020); meva-sabzavotlarni qayta ishlash sanoati (1040); yog'-moy sanoati (1040); sut sanoati (1050); un-yorma sanoati (1061); kraxmal sanoati (1062); non-bulochka sanoati (1071); shakar sanoati (1072); konditer sanoati (1073); makaron sanoati (1074); iste'molga tayyor ovqatlar ishlab chiqarish(1075); hayvonlar uchun ozuqa ishlab chiqarish (1080) [5].

Oziq-ovqat tovarlari iste'mol bozorida ehtiyoj bilan iste'mol, to'lovga qobiliyatlari talab bilan taklif, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'tasida uzviy aloqalar va o'zaro harakatlar mavjud bo'ladi. Mazkur aloqaning, umuman olganda esa iste'mol bozorining qanchalik samaradorligi uni infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi-ga bog'liqdir.

Aynan infratuzilma (ingliz tilidan – asos, poydevor) mintaqaning oziq-ovqat bozorida uyg'un munosabatlari yaratish uchun zarur shart bo'lib, bozor xo'jaligi aloqalari tizimi sifatida bozor subyektlari o'tasidagi aloqalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Fikrimizcha, bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qandolatchilik tarmog'inining ham ahamiyati ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Oziq-ovqat tovarlari bozori infratuzilmasi – bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muhitida faoliyat yuritadigan va bozor ishtirokchilarining samarali o'zaro aloqasiga ko'maklashuvchi ulgurji va chakana savdo, moddiy-texnik ta'minlash va omborxona xo'jaligi, moliya-kredit, sug'urta, axborot va me'yoriy-huquqiy ta'minotning o'zaro bog'liq majmuasini ifodalaydi.

Oziq-ovqat tovarlarning asosiy toifasi talab va taklifdan iborat bo'lib, tovarlarni savdo orqali sotish jarayonida amalga oshiriladi. Aynan talab va taklifning o'zaro nisbati ishlab chiqarishda tarkibiy siljishlarni keltirib chiqaradi, darajasi va dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi hamda agrosanoat majmuasi tarmoqlari o'tasida mablag'larning aylanishiga ko'maklashadi.

Infratuzilma tushunchasini ifodalovchi turli xil yondashuvlar mavjud [6].

Obyektlarni infratuzilma tarkibiga kiritish belgisi bo'yicha quyidagilarni keltirish mumkin:

birinchidan, infratuzilma deganda ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish tizimi tushuniladi (yakuniy mahsulotga ega bo'lмаган, ammo ishlab chiqarish faoliyat ko'rsatishi uchun muhim bo'лган tarmoqlarni o'z ichiga oladi);

ikkinchidan, infratuzilma ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi tizim sifatida tushuniladi (transport, aloqa, moddiy-texnik va omborxona xo'jaligi, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi tarmoqlar);

uchinchidan, infratuzilmaga murojaat qilish sohasidagi xizmatlarni yaratuvchi tarmoqlar kiradi.

Shu bilan birga, infratuzilmani ishlab chiqarishni samarali rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan elementlar majmuasi sifatida ko'rib chiqishda, ko'pincha "infratuzilma"va "xizmat ko'rsatish sohasi" tushunchalari aniqlanadi.

Moddiy-texnik nuqtayi nazardan infratuzilma ishlab chiqarish kuchlarining elementi sifatida qaraladi. O'z navbatida, bular "resurslarni o'zaro manfaatli taqsimlashda to'liq integratsiya va xo'jalik faoliyatining yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi" [7].

Bizning fikrimizcha, har ikki qarash ham infratuzilmaning aniq tushunchasini aks ettirmaydi. Buni quyidagilarni izohlash mumkin. Birinchidan, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish uchun sharoit yaratuvchi tarmoqlar majmuasi va infratuzilmaning moddiy-texnik bazasi bir biridan butunlay boshqa tushunchalardir. Ularning birinchisi, turli tarmoq va sohalarni, shuningdek, o'z funksional maqsadiga ko'ra sezilarli darajada farq qilishi mumkin bo'лган alohida faoliyat turlarini o'z ichiga oladi; ikkinchisi ushbu tarmoqlarga kiritilgan moddiy obyektlarning yig'indisini aks ettiradi. Shu bilan birga, "xizmat ko'rsatish sohasi" tushunchasi, "infratuzilma" tushunchasidan farqli o'laroq, ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu yondashuvlar "infratuzilma" tushunchasining mohiyatini aniqlashga imkon berib, bunga bozor subyektlari o'tasidagi munosabatlarni shakllantirish va amalga oshirishni ta'minlaydigan obyektlar va institutsional tuzilmalar majmuasi sifatida qarash lozim.

I. P. Stukanova oziq-ovqat tovarlari bozori infratuzilmasiga axborot tizimi, huquqiy tizim, moliya-kredit tizimi, savdo va vositachilik tashkilotlarini kiritadi [8].

Oziq-ovqat tovarlari bozori uni boshqa tovarlar bozoridan farqlaydigan qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud.



I. Ivolga iqtisodiy adabiyotlarda berilganlarni umumlashtirish asosida oziq-ovqat tovarlari bozorini farqlay olish mumkin bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi [9]: taklif hajmini nazorat qilishning cheklanganligi; taklifning notekis va barqaror emasligi; taklifning past elastikligi; talabning past elastikligi; tarmoq xatarlarining yuqoriligi; talabning uzlusizligi; boshqa bozorlarga nisbatan xarajatlarning yuqoriligi; hududlar orasidagi sezilarli bo'lgan farqlar va ularni bartaraf etishning qiyinligi; bozor va ishlab chiqarish tarkibiga madaniyat va an'analarning ta'siri.

Yuqoridagi berilgan xususiyatlarga ko'ra shuni aytishimiz mumkinki, oziq-ovqat tovarlari bozoriga tabiatning tabiiy omillari o'z ta'sirini bilvosita o'tkazadi. Shu sababdan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'z ishlab chiqarish miqyoslarini nazorat qilishda cheklangan ikoniyatga ega bo'ladir. Mahsulot ishlab chiqarish va taklif etish hajmlarining o'zgarib turishi talab darajasi va narx darajasi dinamikasiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning bir qismi sifatida davlat agrar va iqtisodiy siyosatining eng asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, aholining barcha qatlamlarini hayot kechirish uchun kerakli miqdor va sog'lom tur mush uchun munosib sifatda oziq-ovqat ta'minotini kafolatlashi lozim [10].

Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi va vazifalarini shakllantirishda BMTning FAO tashkiloti nizomida belgilangan maqsad va vazifalarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu xalqaro tashkilotning Oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasidagi quyidagi tavsiyalari maqsad va vazifalarni belgilashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [11]:

- oziq-ovqat xavfsizligi o'zini o'zi oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlashni ifodalamaydi;
- mamlakat nisbiy ustunlikka ega bo'lgan holatda o'z ehtiyojlari uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini o'zi ishlab chiqarishga harakat qilishi lozim;
- mamlakat zarur miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini import qilishga va o'z fuqarolarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qodir bo'lishi lozim;
- mamlakat hukumati oziq-ovqat xavfsizligi doirasida fuqarolarning xavfsiz oziq-ovqatga miqdoriy va iqtisodiy jihatdan ega bo'lisch (erishish) imkoniyatlarini ta'minlashi kerak.

Mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ovqatlanishga bo'lgan fiziologik talab, ya'ni aholi soni, uning ijtimoiy-demografik tarkibi, oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan to'lov qobiliyati darajasi, hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

Shu o'rinda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkiloti oziq-ovqat xavfsizligi holatini baholashda quyidagi to'rt yo'naliш bo'yicha ko'rsatkichlarni shakllantirganligini ta'kidlashimiz mumkin [12]:

- mahsulotning mavjudligi (bunda ishlab chiqarish hajmlari, hosildorlik/mahsuldarlik, zaxiralar darajasi, zarar va yo'qotishlar va h.k. ko'rsatkichlar qo'llaniladi);
- oziq-ovqatga erishish imkoniyatlari (mavjud holatdagi daromadga zarur hajmdagi oziq-ovqatni xarid qilishning iqtisodiy imkoniyatlari, oziq-ovqatni tashish, ya'ni qattiq qoplamali yo'llarning ularning umumiy uzunligidagi ulushi, temir yo'llarning zichligi tahlil qilinadi);
- oziq-ovqat bilan ta'minlashning barqarorligi (turli mavsum va davrlarda oziq-ovqat mahsulotlarning yetarligi, ularning narxlari baholanadi va h.k. Bunda tabiiy ofatlar va ijtimoiy larzalar yuz berishi holatlari kuzatilib boriladi);
- oziq-ovqat iste'moli (haqiqiy iste'mol darajasi ovqatlarning to'yimliliqi, ya'ni uning kaloriyasi, oqsillar, mikroelementlar va h.k. bilan to'yinganligi nuqtayi nazaridan baholanadi).

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, oziq-ovqat tovarlari bozoridagi davlat siyosati boshqa tovar bozorlariga nisbatan boshqacha tarzda shakllantirilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohada davlat siyosatini yangicha yondashuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi [3].

Mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo'naliшirilgan bo'lib, undagi birinchi ustuvor yo'naliш aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi.

Aholi sonining o'sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o'zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy omillardir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston dunyoda egallagan o'rnini mustahkamlashga erishdi va bosqichma-bosqich global reytinglarda o'z mavqeysini yaxshilab oldi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti 2021-yil uchun Global ochlik indeksi reytingini e'lon qildi. 116 ta mamlakat joy olgan mazkur reytingda O'zbekiston ochlik darajasi past davlat deb topildi [15].



Ustuvor yo'nalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan. Bu esa O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM), shu jumladan BMTning 2-BRM "Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iste'molni yaxshilash va barqaror qishloq xo'jaligini targ'ib qilish"da belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, ichki bozorni oziq-ovqat bilan to'ldirish, ularni ishlab chiqarish sohasida o'z-o'zini ta'minlashga erishish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiyotining muhim sektori hisoblangan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Shu jihatdan O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan unumli, samarali foydalanishi ta'minlashga qaratilgan qonunchili-kni yanada mustahkamlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqori bo'lishiga erishish zarur.

Oziq-ovqat mahsulotlariga xos bo'lgan yuqoridaagi kabi xususiyatlarni yana ko'plab keltirishimiz mumkin. Shu bilan birga, oziq-ovqat bozorlari aholi uchun zarur bo'lgan savdo obyektlaridan biri hisoblanib, uning amal qilishi, rivojlanishi bozor talablariga to'liq javob beradi va mohiyati bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda eng muhim o'rnlardan birini egallaydi.

Respublikamiz ichki bozorini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishda qishloq xo'jaligi muhim rol o'yndaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 17-apreldagi PF-5708-sonli Farmoniga muvofiq quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilangan:

- birinchi navbatda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda bozor tamoyillarini joriy etish, ilg'or tajriba va fan yutuqlarini, zamonaviy resurs tejovchi va intensiv agrotexnologiyalarni joriy etishni nazarda tutuvchi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishda zamonaviy kooperatsiya munosabatlarni kengaytirish orqali qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining qo'shilgan qiymati zanjiri yaratilishini rag'batlantirish;
- agrobiznesning klaster modelini keng joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, klasterlash jarayonining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida klasterlarni tashkil etish va rivojlanirish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;
- agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligi, hosildorligi past yerlar unumdarligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirishga ko'maklashadigan qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish;
- keng ko'lamli zamonaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlanirish va sifatli qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish imkoniyatini oshirish orqali qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni rag'batlantirish;
- qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini tayyorlash, foydalanish va eksport qilishning zamonaviy tizimini shakllantirish, mahalliy va xorijiy seleksiya navlari, shu jumladan biotexnologik navlarning birlamchi urug'chiligi tashkil etish va rivojlanirish;
- o'simliklarni himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, zararkunandalar va begona o'tlarga qarshi kurashish, agrokimyoiy xizmat ko'rsatish va tuproqni muhofaza qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ta'lim, fan va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tizimli asosda uzviy integratsiyalashuvini, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining yuqori malakali soha mutaxassislariga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlash^[2].

Fikrimizcha, oziq-ovqat ta'minoti masalasini mamlakat makroiqtisodiy rivojlanishining murakkab, biroq yechilishi shart bo'lgan muammosi, uning asosiy manbai hisoblangan agrosanoat majmuasi tabaqali tizimga ega ekanligini hisobga olgan holda hal etish maqsadga muvofiq.

Shu bois, mazkur masalani mamlakatning o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan, sohaga aloqador omillarni ketma-ketlik tarzida tizimlashtirilgan holda ko'rib chiqish amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar bajarilishida uzvilyik jihatidan qator qulayliklar yaratadi.

Oziq-ovqat ta'minoti muammolarini alohida tizim sifatida tadqiq etishda ularni bir necha quyi tizimlarga ajratish maqsadga muvofiq. Xususan, oziq-ovqat ta'minoti muammosini hal qilishda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularning muammo yechimiga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni belgilab olish lozim, deb hisoblaymiz.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada O'zbekistonda oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talabning o'zgarish tendentsiyalari, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berish jarayonlarini qiyosiy solishtirish, ilmiy o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalilanigan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Iste'molchilar nisbatan bir xildagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qiladilar va uni uzoq muddatga olib qo'ya olmaydilar. Bozor sig'imi nafaqat aholi soni bilan, balki uning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan fiziologik hajmi bilan ham belgilanadi.

Oziq-ovqat tovarlari bozoriga nafaqat ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi xom ashyosi, tayyor mahsulot va oziq-ovqat tovarlari assortimenti va transport xarajatlari miqdori, shuningdek, ishlab chiqarish yo'qotishlari va bozor narxlar bilan bog'liq bo'lgan hududiy farqlar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning qayta ishlash, saqlash va iste'mol qilish markazlaridan uzoqda joylashishi mahsulotni manfaatli sharoitlarda o'tkazish imkoniyatidan mahrum etadi.

Milliy ananalar, madaniy va tabiyi xususiyatlar muayyan hududlar aholisining talab va taklifini shakllanishiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatining tarkibiga o'za'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog'liq bo'lib, mammalat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda oziq-ovqat barqarorligini, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga fiziologik minimumga muvofiq miqdoriy va iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan erishishini kafolatlash hamda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsiz iste'molini ta'minlashda ichki iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki bozorni oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishda nafaqat ichki ishlab chiqarish, balki oziq-ovqat tovarlarining importi ham ishtirok etadi. Bunda mamlakatda ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishda infratuzilmaning rivojlananlik darajasi ham o'za'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi (1-rasm).



1 - rasm: Ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishda ishtirokchilarning o'zaro aloqasi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.




Oziq-ovqat tovarlari bozorining barqaror emasligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yil davomida mavsumga bog'liq bir tekisda yetilmasligi va ob-havo sharoitlariga qaram ekanligi bilan bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi narxlar o'zgarishidan kam ta'sirlanadi. Tarmoqda bo'lib turadigan doimiy xarajatlarining yuqoriligi ishlab chiqarish hajmlari pasayib qolgan holatda mahsulot ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yomonlashishiga olib keladi. Ko'plab qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talab narxlar bo'yicha kam elastikdir, chunki aholi ma'lum bir to'plamdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qiladi. Aniq bir turdag'i oziq-ovqat mahsulotni iste'molini oshirish uchun narxlar sezilarli darajada tushib ketishi kerak bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi tadbirkorligiga yuqori xatarlar xos bo'lib, tabiiy omillar sababli va yil davomida mahsulotlarning bozorga chiqishi bir xil emasligi va bozor konyunkturasi o'ta barqaror emasligi bunga sabab bo'ladi.

O'zbekistonning oziq-ovqat importidagi TOP-10 davlatlar (2022-yil, mln. AQSh dollarri) ko'rsatilgan ma'lumotlar 2-rasmida ko'rsatilgan.



2 - rasm: O'zbekistonga oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi davlatlar

Manba: UzPressa ma'lumotlari

2-rasmida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonga oziq-ovqat mahsulotlarini import qilayotgan 10 ta davlatga e'tibor qaratilgan. Bunga ko'ra, birinchi o'rinda Qozog'iston 1021,6 mln. AQSh dollarri, ikkinchi o'rinda Rossiya 680,3 mln. AQSh dollarri, uchinchi o'rinda Belarusiya davlati bo'lib 414,6 mln. AQSh dollarri teng mahsulotlarni import qiladi. Oxirgi o'rnlarda Xitoy (42 mln. AQSh dol.), Turkiya (39,1 mln. AQSh dol.) va Hindiston (36,7 mln. AQSh dol.) teng ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining viloyatlar kesimida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish holati 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1 - jadval: O'zbekiston Respublikasining viloyatlar kesimida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish (foizda)

Hududlar	2010	2012	2014	2016	2018	2020	2021	2021-yilda 2010-yilga nisbatan farqi
O'zbekiston Respublikasi	111,5	107,9	109,4	106,0	114,7	105,7	113,9	2,4
Qoraqalpog'iston Resp.	109,4	109,6	112,0	104,3	122,2	113,6	105,3	-4,1
Andijon	108,9	109,2	101,2	70,1	165,2	99,9	92,3	-16,6
Buxoro	109,4	104,6	110,9	105,1	102,6	108,9	114,9	5,5
Jizzax	116,2	109,6	113,3	120,5	106,7	116,7	136,6	20,4
Qashqadaryo	109,6	108,1	105,8	112,7	100,7	110,9	95,7	-13,9
Navoiy	112,1	107,8	105,1	111,5	100,1	102,3	107,0	-5,1
Namangan	113,7	111,4	113,7	122,2	111,6	96,4	120,1	6,4



Samarqand	118,5	104,4	116,0	108,9	111,6	119,9	112,9	-5,6
Surxondaryo	107,9	105,8	114,0	119,4	101,5	121,2	112,5	4,6
Sirdaryo	107,7	107,1	110,8	111,8	104,4	86,3	118,3	10,6
Toshkent	116,6	112,3	109,5	114,5	111,7	115,0	127,0	10,4
Farg'ona	109,7	103,2	107,0	112,5	101,3	111,4	111,2	1,5
Xorazm	111,1	111,6	186,7	93,8	130,4	100,1	117,7	6,6
Toshkent sh.	110,5	107,4	114,9	119,4	101,7	107,0	129,2	18,7

Manba: <http://www.stat.uz>

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunda O'zbekiston Respublikasining viloyatlar kesimida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish holati foizda ko'rsatilgan. Bunga ko'ra, 2010-yildan 2021-yilgacha bo'lgan muddatda respublikaning viloyatlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, respublikaning ayrim viloyatlarida 2021-yilga kelib iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish kamaygan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi (4,1%), Andijon (16,8 %), Qashqadaryo (13,9 %), Samarqand (5,6 %), viloyatlarida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Qolgan viloyatlarda esa 2010-yilga nisbatan 2021-yilda iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish oshganligini ko'rishimiz mumkin. Respublika bo'yicha iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish 2,4 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu esa bozor narxlarining tebranib turishiga olib keladi hamda mahsulotni avvaldan tayyorlash va saqlashga bo'lgan xarajatlari hisobiga oshib boradi.

Oziq-ovqat xavfsizligining to'rt tarkibiy qismlari (oziq-ovqatning mavjudligi, uni xarid qilish qobiliyati, undan foydalanish va uning barqarorligi) bo'yicha oziq-ovqat xavfsizligining davlat siyosati ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

XULOSA

Butun dunyoda oziq-ovqat taqchilligi xavfi ortib borayotgan bir paytda O'zbekiston rahbariyati nafaqat ichki talabni qondirish, balki tashqi bozorga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish hajmini oshirish imkonini beradi-gan muhim va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonning muhim missiyasi va har bir davlatning ushbu murakkab davrdagi dolzarb vazifasi xalqaro hamjamiyatda alohida xavotir va tashvish uyg'otuvchi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga mas'uliyat bilan yondashishdir.

Ichki bozorni oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishda, ularga bo'lgan talab tarkibidagi o'zgarishlar va tendensiyalarni tadqiq etar ekanmiz, bunda savdo-sotiq jarayonini tashkil etishda oziq-ovqat mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari ham inobatga olish kerak, deb hisoblaymiz, jumladan:

- oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyat qismi insonlar iste'moli uchun juda ham zarur bo'lgan ne'matlar-dandir. Shuning uchun ham narx-navoning o'sishi holatida ham, bu mahsulotlarga bo'lgan talab kamay-maydi;
- mamlakatning o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar insonlar faoliyati bilan chambarchas bog'lan-gan bo'lib, faqat iqtisodiy samaradorlik bilan o'chanib qolmasdan, balki u yoki bu mahsulotning yo'qligi hayot-mamotni hal qilishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi va taklifi faqat yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan o'chanmasdan, balki samaradorlik nuqtayi nazaridan ham hisobga olinadi. Bu milliy xavfsizlikni ta'minlaydigan yo'nalishlar orasida oziq-ovqat majmuasi rivojlan-ishini yuqori o'rinnadan biriga qo'yadi;
- oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishda fiziologik, tarixiy, milliy, hududiy, iqlim, intellektual xususiyat-larga asoslangan chegarasi mayjud bo'lib, bozorlarning mahsulotlar bilan to'ldirilishi natijasida, aholining daromadlari o'sishi kuzatiladi va mahsulotlarga talabning ortiqcha namoyon bo'lmasligini ko'rsatadi. Natijada, oziq-ovqat iste'moli uchun sarflangan xarajatlar ulushi kamayadi, daromadlar bo'yicha salbiy egiluvchanlik kuzatiladi va boshqa tovarlarga e'tibor qaratilib, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish rag'batlantiriladi;
- ko'p asrlar, yillar davomida qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib kelgan. Shu sababli ham oziq-ovqat mahsulotlari elastikligi yuqori bo'Imagan, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish uchun katta mablag', mehnat va vaqt sarflash talab qilingan, lekin hamma vaqt ham buning iloji bo'Imagan. Fan-teknika rivojining kuchayishi bilan, qishloq xo'jaligining yerga bog'liqligi ham nisbatan kamayib bordi. Ayniqsa, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda bu jarayon yerga bog'liq bo'lmay qoldi. Shunga qaramasdan, yer qishloq xo'jaligida asosiy predmet va qurol bo'lib qolaveradi;



- oziq-ovqat mahsulotlariga talab nisbatan sekin o'zgaradi va ko'plab omillar, ayrim hollarda umumiy yoki bir mahsulotga tegishli bo'lgan omillar asosida belgilanadi. Masalan, qishloq xo'jaligiga bo'lgan munosabat aholining, dehqon va fermer xo'jaliklariga bo'lgan munosabatlar asosida aniqlanadi;
- oziq-ovqat mahsulotlariga talab kam egiluvchanlikka egadir, ya'ni narx-navoning keskin ko'tarilishi, talab miqdorining keskin kamayishiga olib kelmaydi, shu bilan bir vaqtida sotuvchi daromadining ortib borish holatiga ega bo'ladi;
- aholi tomonidan har doim iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga talabning ham takror sodir bo'lishi kuzatiladi. Bu esa tovar ishlab chiqaruvchilar o'z tashabbuslari bilan har doim mahsulot ishlab chiqarish uchun harakat qilish bilan belgilanadi;
- oziq-ovqat mahsulotlarining taklifi narx-navoning o'zgarishiga ham bog'liq bo'lib, u harakatchanlik, ya'ni tovar hajmining ko'payish yoki kamayish xususiyatiga ega. Ayniqsa, o'simlik mahsulotlarida bu yaqqol seziladi, chorvachilik mahsulotlarida esa uzoq muddatli takror ishlab chiqarish bosqichlari mavjuddir. Ayniqsa, dehqon xo'jaliklari egalari o'zlari yetishtirgan mahsulotlarining bozordagi konyunkturasini yaxshi bilganliklari tufayli, ulardan ayrimlarini ma'lum bir vaqtgacha, ya'ni narx-navoni ko'tarilishi davrigacha ushlab turishi mumkin va natijada yaxshi daromad olishga harakat qiladilar;
- oziq-ovqat mahsulotlari uchun xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri ishlab chiqarishda tabiiy-iqlim sharoitlari va yana boshqa sabablarga ko'ra mo'ljaldagidan ko'ra kamroq hosil olish holatlarining sodir bo'lishidir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tabiiy ob-havo sharoitlariga bog'liq. Hatto qishloq xo'jaligida eng jadal texnologiyalar qo'llovchi yuqori darajadagi agrar madaniyatga ega bo'lgan mamlakatlarda ham, mahsulot ishlab chiqarish hajmi kutilmagan natijalarni berishi mumkin. Qurg'oqchilik, suv toshqini, zararkunandalar, mollar va o'simliklarning kasallanishi agrar sohada sarflanadigan kapitalni oqlamasligi kuzatilgan. Bunday sharoitda sotishdan kelgan daromad miqdori ham kamayishi mumkin;
- oziq-ovqat mahsulotlariga bozor talabi chegaralangan bo'lib, bozorning to'liq ta'minlanishigacha yetib borishi mumkin. Sanoat va boshqa nooziq-ovqat mahsulotlari cheklanmagan miqdorda iste'mol qilinsa, oziq-ovqat mahsulotlarini faqat ma'lum miqdorgacha iste'mol qilish mumkin, ya'ni foydalilik chegarasi kamayishi qonuni amal qiladi.

Ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'yintirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talab tarkibini baholashda mamlakatdagi mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarish salmog'i, bir sutkada aholi tomonidan yetarli darajadagi kaloriyaga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilinishi, ovqatlanishning oqilona tarkibini ta'minlash va aholining ehtiyojlarini fiziologik jihatdan asoslangan me'yorlarda to'liq ta'minlash, oziq-ovqatlarning o'rmini qoplovchi sug'urta zaxiralarini shakkantirish hamda mamlakat ichida ishlab chiqarilmaydigan yoki kam miqdorda ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni import hisobidan qondirishning real imkoniyatlarini asoslash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis Palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi //Xalq so'zi, 2016-yil 15-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 17-apreldagi PF-5708-soni Farmoni // "Xalq so'zi", 2019-yil 19-aprel.
3. 2019-yil 23-oktyabr PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
4. https://www.google.com/search?q=пищевая+промышленность&rlz=1C1GGRV_ruUZ764UZ764&oq=пищевая+промышленность&aqs=chrome..69i57j0i5.21861j0j7&sourceid=c
5. https://www.google.com/search?q=пищевая+промышленность&rlz=1C1GGRV_ruUZ764UZ764&oq=пищевая+промышленность&aqs=chrome..69i57j0i5.21861j0j7&sourceid=c; https://ru.wikipedia.org/wiki/
6. Стуканова И. П. Маркетинговые управление региональным потребительским рынком продовольственных товаров. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. -М.:2009, 165-б.
7. Iochimsen R. Theorie der Infiastructure. – Tübingen, 1996, 99-б.
8. Стуканова И. П. Маркетинговые управление региональным потребительским рынком продовольственных товаров. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. – М., 2009. – С. 156.
9. Ивольга И. К.Функционирование продовольственного рынка России и его адаптация к условиям ВТО. Диссертация на соиск. ученой степени кандидата экономических наук. Нальчик, 2016. 12-бет
10. Лобачева Т. И. "Продовольственная безопасность как важнейшая составная часть национальной безопасности". – Москва, 2016. – С. 26.



11. Шагайда Н. И., Узун В.Я. Продовольственная безопасность в России: мониторинг, тенденции и угрозы. – М.: РАНХ и ГС при Президенте РФ, 2014. – С. 8.
12. Шагайда Н. И., Узун В.Я. Продовольственная безопасность в России: мониторинг, тенденции и угрозы.-М.: РАНХ и ГС при Президенте РФ, 2014.-С.8.; <http://www.fao.org/about/what-we-do/ru>
13. Azlarova M. Analysis methods of the factors influencing on consumer market // Byulleten nauki i praktiki. 2018. Т. 4. №2. S. 276-282.
14. Azlarova M. Assessment of tenders of development of the consumer goods market in Uzbekistan. International Journal of Scientific&Engineering Research Volume 12, Issue 3, March -2021, 818-523 p., USA, GIF-0,98
15. Azlarova M. Impact of technology-supported marketing strategies on food security and provision: Evidence from Uzbekistan's confectionery industry //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – S. 39-45.
16. Азларова, М. (2023). Теоретические основы наполнения внутреннего рынка продовольственными товарами в условиях глобализации экономики. Economics and Education, 24(1), 292–300. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a45
17. Azlarova M. Marketing Strategies for Saturating the Country's Consumer Market With Food: Marketing Strategies for Saturating the Country's Consumer Market With Food //Arxiv nauchnykh issledovaniy. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
18. <https://www.globalhungerindex.org/ranking.html>
19. UzPressa ma'lumotlari.
20. <http://www.stat.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.